


Аналитическая информация по основной деятельности Комитета по автомобильным дорогам за 9 месяцев 2020 года (текст документа приведен на государственном языке)

| T/r | Asosiy faoliyat turi bo'yicha ko'rsatkichlar | O'lchov birligi | 2019 y 9 oylik amalda | 2020 y 9 oylik amalda | O'tgan yilga nisbatan(%) |
|-----|--|-----------------|-----------------------|-----------------------|--------------------------|
| | Bajarilgan ish xajmi, jami | mlrd.so'm | 3700.4 | 3053.0 | 82.5 |
| | shu jumladan: | | | | |
| 1 | Investitsiya dasturi bo'yicha | mlrd.so'm | 901.8 | 720.2 | 79.8 |
| | | km | 57.4 | 77.7 | 135.4 |
| 2 | To'la ta'mirlash ishlari | mlrd.so'm | 343.9 | 213.8 | 62.2 |
| | | km | 80.5 | 21.3 | 26.4 |
| 3 | Mintaqaviy yo'llarni ta'mirlash | mlrd.so'm | 1388.7 | 969.3 | 69.8 |
| | | km | 6200.5 | 1991.5 | 32 |
| 4 | Umumiy foydalanuvdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash ishlari | mlrd.so'm | 1066 | 1149.7 | 108 |
| | | km | 2200 | 2270 | 103 |
| 5 | Yangi ishjoylarini yaratish | kishi | 293 | 11774 | 40 barovar o'sish |

Qo'mita tizimidagi korxonalar va tashkilotlar 2020 yil 9 oylikda Investitsiyadasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida 720.2 mlrd. so'mlik qurish va rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilning xuddi shu davriga nisbatan 79.8 foizni tashkilotadi.

Bundan tashqari to'la ta'mirlash dasturiga asosan umumiy foydalanishdagi avtomobilyo'llarida 213.8 mlrd.so'mlik ta'mir ishlari bajarildi. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilga nisbatan 62.2 foizga teng.

2019-2020 yillar 9 oylik yakuniga ko'ra asosiy faoliyat ko'rsatgichlarining taqqoslama diagrammasi



2020 yil 9 oylik yakuni bo'yicha Respublikamizdagi 1991.5 km mintaqaviy avtomobil yo'llari ta'mirlandi. Shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasida 77.2 km, Andijonda 268.5 km, Buxoroda 134.1 km, Jizzaxda 101.7 km, Qashqadaryoda 224.2 km, Navoiyda 92.4 km, Namanganda 86.6 km, Samarqandda 194.1 km, Surxandaryoda 146.4 km, Sirdaryoda 90.7 km, Toshkent viloyatida 108.5 km, Farg'onada 211.4 km, Xorazmda 150.3 km hamda Toshkent shahrida 105.4 km mintaqaviy avtomobil yo'llarida ta'mirlash ishlari olib borildi. Mintaqaviy ichki yo'llar ta'miri hajmi esa o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 32 foizni tashkil etadi.

2020 yil 9 oylik yakuniga ko'ra mintaqaviy avtomobil yo'llarini ta'mirlash (hududlar kesimidagi diagramma)

*

2020 yil 9 oylikda Respublika bo'yicha avtomobil yo'llarida 42695 km uzunlikdagi yo'llardan 2270 kmdan iborat qismida joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, ularning holati yaxshilandi. Bu esa 2019 yil 9 oylikka qaraganda 103 foizni tashkil etadi.

Tizim korxonlari tomonidan 2020 yil I-yarim yilligida 11774ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu ko'rsatkich esa 2019 yilining mos ravishdagi tegishli davriga qaraganda 40 barovar oshgan.

Xulosa qilib aytganda, Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2020yil 9 oylikda –umumiy bajarilgan ishlar hajmi – 3053 mlrd. so'mdan iborat. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 82.5 foizni tashkil etganligini ko'rsatadi.